

**Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar**  
**2019 yil yanvar–iyun**

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2018 yil yanvar-iyuniga nisbatan foiz hisobida</i>
Yalpi hududiy mahsulot	7923,2	106,5
Sanoat mahsuloti	3949,4	110,8
Iste'mol tovarlari	2485,4	126,5
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	5073,9	103,9
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	2 428,1	176,0
Qurilish ishlari	1 307,5	114,8
Yuk aylanmasi (mln. tn-km)	346,1	107,9
Yo'lovchi aylanmasi (mln.yo'lovchi-km)	3777,4	103,1
Chakana tovar aylanmasi	3138,6	112,9
Xizmatlar, jami	2514,2	114,7
Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh doll)	245,0	198,6
Eksport (mln. AQSh doll.)	86,2	168,0
Import (mln. AQSh doll.)	158,8	2,2 m
Saldo (+;-) (mln. AQSh doll.)	-72,6	x


## I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019 yil yanvar-iyunda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 7923,2 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 106,5 foizga teng bo'ldi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida YaHM deflyator indeksi 121,1 foizni tashkil qildi.

**Yalpi hududiy mahsulot (YaHM)** - milliy hisoblar asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yalpi qo'shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig'indisi orqali hisoblanadi.

**2019 yil yanvar-iyun oylari uchun YaHMning  
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari**  
(foiz hisobida)



Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qurilish – 114,8 foiz (umumiy ulushning 7,9 foizi), sanoat – 110,8 foiz (umumiy ulushning 17,0 foizi), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 108,1 foiz (umumiy ulushning 6,1 foizi) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 105,2 foiz (umumiy ulushning 22,0 foizi) ni tashkil qildi.

**2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyat yalpi hududiy  
mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi**


	<i>mlrd.so'm</i>		<i>2018 yil yanvar- iyuniga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2018 yil yanvar-iyun</i>	<i>2019 yil yanvar-iyun</i>	
<b>I. Yalpi hududiy mahsulot, jami</b>	<b>6 145,6</b>	<b>7 923,2</b>	<b>106,5</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning Yalpi qo'shilgan qiymati	5 933,1	7 536,2	106,3
Mahsulotlarga sof soliqlar	212,5	387,0	109,4
<b>II. Tarmoqlarning Yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>5 933,1</b>	<b>7 536,2</b>	<b>106,3</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	2 600,7	3 041,4	103,9
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	<b>1 311,6</b>	<b>1 873,4</b>	<b>112,2</b>
Sanoat	853,9	1 280,0	110,8
qurilish	457,7	593,4	114,8
Xizmatlar	<b>2 020,8</b>	<b>2 621,4</b>	<b>105,7</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	376,1	462,5	108,1
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	452,2	494,1	105,0
boshqa xizmatlar	1 192,5	1 664,8	105,2

2019 yilning yanvar-iyun oylarida viloyatning Yalpi hududiy mahsulotining o'sish sur'atiga asosiy ta'siri 114,8 foiz – qurilish, 110,8 foiz - sanoat tarmoqlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


YaHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 70,4 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keldi, bu ko'rsatkich 2018 yil yanvar-iyun oylarida 74,8 foizni tashkil qilgan.

### Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi yanvar–iyun holatiga (jamiga nisbatan foizda)

2018 yil yanvar-iyun



2019 yil yanvar-iyun



- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar

2019 yilning yanvar-iyun oylarida YaHM tarkibida Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi sohasining ulushi 40,4 foizni tashkil qildi, bu esa 2018 yilning yanvar-iyuniga nisbatan -3,4 punktga kamdir (33,4 foiz), xizmatlar sohasi 34,7 foizni tashkil qildi va 0,6 punktga koʻpaydi. Sanoat (qurilishni qoʻshgan holda)ni ulushi 24,9 foizni tashkil qilib, 2018 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 2,8 punktga oshdi.

**Oʻzbekiston Respublikasining Xorazm viloyati bilan solishtirma  
makroiqtisodiy koʻrsatkichlari**

(2019 yil yanvar-iyun)

	<i>Oʻzbekiston Respublikasi</i>		<i>Xorazm viloyati</i>		<i>Respublikadagi ulushi % da</i>	
	<i>mlrd. soʻm</i>	<i>Oʻsish surʼati, % da</i>	<i>mlrd. soʻm</i>	<i>Oʻsish surʼati, % da</i>	<i>yanvar- iyun 2018 y.</i>	<i>yanvar- iyun 2019 y.</i>
Yalpi ichki mahsulot (hududiy) mahsulot	222 022,0	105,8	7 923,2	106,5	3,5	3,6
Sanoat	147 831,7	106,9	3 949,4	110,8	2,6	2,7
Istemol tovarlari	48 748,9	116,1	2 485,4	126,5	4,7	5,1
Qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi	82 390,5	102,1	5 073,9	103,9	6,1	6,2
Investitsiyalar	85 775,1	158,9	2 428,1	176,0	2,6	2,8
Qurilish ishlari	34 351,2	120,0	1 307,5	114,8	4,0	3,8
Chakana tovar aylanishi	77 123,9	106,4	3 138,6	112,9	3,8	4,1
Xizmatlar, jami	84 194,4	112,7	2 514,2	114,7	3,0	3,0
Eksport ( <i>mln. AQSh doll.</i> )	8 437,6	127,0	86,2	168,0	0,8	1,0
Import ( <i>mln. AQSh doll.</i> )	11 245,6	132,0	158,8	220,4	0,8	1,4

2019 yilning yil yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyati Yalpi hududiy mahsuloti 7923,4 mlrd. soʻmni (Yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 3,6 foiz) tashkil qilib, oʻsish surʼati oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 106,5 foizni tashkil qildi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 3949,4 mlrd.soʻmni (respublikada sanoat mahsulotlarining 2,7 foizini) tashkil etib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 110,8 foizni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyatda 2485,4 mlrd. soʻmlik xalq isteʼmol tovarlari (respublikada xalq isteʼmol mahsulotlarining 5,1 foizi) ishlabchiqarilib, 2018 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 126,5 foizni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, oʻrmon va baliq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarilgan (koʻrsatilgan xizmatlar) umumiy hajmi 5073,9 mlrd. soʻmni (respublikada sanoat mahsulotlarining 6,2 foizi)ni tashkil etib, 2018 yilning shu davriga nisbatan oʻsish surʼati 103,9 foizga etdi. 2019 yil yanvar-iyun oylarida viloyatning iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbaalari hisobidan 2428,1 mlrd. soʻm asosiy kapitalga investitsiyalar kiritilib, 2018 yilning shu davriga nisbatan 176,0 foizni tashkil etdi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida 1307,5 mlrd. soʻmlik (respublikadagi ulushi 3,8 foiz) qurilish ishlari bajarilib, oʻtgan yilning shu davriga nisbatan 114,8 foizni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar–iyunida Chakana savdo tovar aylanmasi 3138,6 mlrd. soʻmni (respublikadagi ulushi 4,1 foiz), 2018 yilning shu davriga nisbatan 112,9 % ni tashkil qildi. 2019 yil yanvar-iyun oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha hajmi 2514,2 mlrd. soʻmni, respublikadagi ulushi 3,0 foizni tashkil qildi va 2018 yil yanvar-iyun oylariga nisbatan oʻsish 114,7 foizni tashkil etdi. Tashqi savdo aylanmasi 2019 yilning yanvar–iyunida 245024,7 ming AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,2 foizni), oʻsish surʼati 198,6 foizni, jumladan: eksport – 86184,2 ming AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,0 foizni), oʻsish surʼati 168,0 foizni; import – 158840,5 ming AQSh dollarini (respublikadagi ulushi 1,4 foizni), oʻsish surʼati 2,2 martani tashkil etdi.